



**Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li**  
 O'riental universiteti Pedagogika va psixologiya  
 kafedrası o'qituvchisi  
 e-pochta: [raimdjanovmirkarim@gmail.com](mailto:raimdjanovmirkarim@gmail.com)



**Tohirova Hamida Lutfulla qizi**  
 O'riental universiteti Pedagogika va psixologiya  
 yo'nalishi talabasi  
 e-pochta: [hamidatohirova7@gmail.com](mailto:hamidatohirova7@gmail.com)

## YOSHLARNING TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHLARINING AYRIM IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK MASALALARI

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlarning turli xil yot g'oyalarga berilib ketishlarining ijtimoiy-psixologik omillari, xususan, ularning individual-psixologik xususiyatlari, ma'lumotlilik darajasi, oila va oilaviy muhit, tengqurlari va ommaviy axborot vositalari ta'sirining ijtimoiy-psixologik masalalari bayon etiladi.

**Tayanch so'zar:** Yot g'oyalar, yot g'oyalarga berilish, ommaviy axborot vositalari, mafkuraviy xurujlar, yot g'oyalar ta'siridan muhofaza etishning omillari, destruktiv xulq.

**Аннотация:** В статье описываются социально-психологические факторы привязанности молодежи к различным чужеродным идеям, в частности их индивидуально-психологические особенности, уровень образования, влияние семейного среда, сверстников и средств массовой информатсии. А также, обсуждены социально-психологические вопросы профилактики привязанности различным чужеродным идеям молодежи.

**Ключевые слова:** Чужие идеи, привязанность к чужим идеям, СМИ, идеологические атаки, факторы защиты от влияния чужих идей, деструктивное поведение.

**Annotation:** The article describes the socio-psychological factors of young people's attachment to various foreign ideas, in particular their individual psychological characteristics, level of education, the influence of the family environment, peers and the media. And also, socio-psychological issues of prevention of attachment to various alien ideas of youth were discussed.

**Key words:** Other people's ideas, attachment to other people's ideas, media, ideological attacks, factors of protection from the influence of other people's ideas, destructive behavior.

**Kirish.** Ma'lumki, ko'plab mafkuraviy xurujlar va yot g'oyalar turli yo'llar bilan mamlakatimiz hayotiga kirib kelib, yoshlarni har tomonlama ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash jarayonlariga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmayapti. Bu esa, o'z navbatida, mazkur holatlarni o'rganish, psixologik tahlil qilish, yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan, yot g'oyalar ta'siridan muhofaza etishning omillari va vositalarini izlab topish har qachongidan muhim masala ekanligini ko'rsatadi.

**Asosiy qism.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash,

muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida "Bugun qancha yoshlar soxta aldovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamasdan chiqaman. O'zingiz ayting, aziz birodarlar, bu achchiq haqiqat yuragimizga sanjar bo'lib sanchilishi kerak emasmi? Axir kechagina shu yoshlar, o'zimizning qora ko'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku. Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'aflatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo'liga o'tib ketdi? Nima jin urdi-yu ular o'z ota-

onasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bunday mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo'ladi" – deb ta'kidlaydi<sup>1</sup>.

Diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan, terrorchilik harakatlarini sodir etadigan shaxslar psixologiya fani nuqtayi nazaridan qanday insonlar ekanligi, ularni mazkur harakatlarni amalga oshirishga undaydigan motiv, sabablar nimaligi to'g'risida adabiyotlar yaratilgan, kitoblar yozilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyida mazkur mavzuda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, mutaxassislar fikrlari asosida yoshlarning turli yot g'oyalarga berilishlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, psixologik portreti, qiyofasi, umuman terror va ekstremizm psixologiyasi xususidagi ayrim mulohazalarni bayon qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, destruktiv xususiyatga ega axborotlardan voqif bo'lish ham shaxs yoki jamoaning o'zi yashayotgan jamiyatga ijtimoiy va psixik dezadaptatsiyalanishiga, ijtimoiylashuvning nomuvofiq shakllanishiga, hatto kishilarda turli psixosomatik kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi ehtimolini beradi. Shu nuqtayi nazardan turli destruktiv xatti-harakatlarning oldini olish uchun insonlarda psixologik himoya mexanizmlarini va mos ravishda himoya xulqini shakllantirish maqsadga muvofiqdir<sup>2</sup>.

Ma'lumki, dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarga nazar tashlasak, yoshlar orasida ekstremizm, terrorizm hozirgi vaqtda kuchayib borayotganligi ko'zga tashlanadi. Mazkur jihat nima bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini, uning sababini aniqlashda aynan yoshlar tajovuzkor ekstremistik harakatlarga moyil tahlikali guruhning tashkil etishini yodda tutish kerak. Yoshi nuqtayi nazaridan yoshlarga maksimalizm va nihilizm, radikalizm va betoqatlik, tavakkalchilik va murosasizlik, guruhbozlik, beqarorlik, shoshqaloqlik xususiyatlari xos bo'lib, qulay vaziyatlarda bu muayyan aksilijtimoiy faollikni ishga tushirib yuboruvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

O'smirlar va yoshlar aholining eng ta'sirga beriluvchan qatlami sifatida turli nizolar, har xil

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби" мавзусидаги анжуманда сўзлаган нуткидан. "Маърифат" газетаси, 2017 йил 1-июн, №52

<sup>2</sup> Хаитов А., Қодиров Б., Қодирова А. Шахсда психологик ҳимоя механизmlарини шакллантириш. Республика илмий анжумани материаллари тўплами. –Т. 2012. –Б 32-34.

diniy-ekstremistik, terrorchilik yo'nalishidagi tashkilotlarning faol ishtirokchilari, a'zolari bo'lishi ehtimoli kattadir. Butun dunyoda yoshlarning ekstremistik harakatlarga moyilligi kuchayganligi mazkur holatning diqqat bilan o'rganilishini, tadqiq etilishini talab etmoqda. Ayrim yoshlarning istiqbolni aniq tasavvur eta olmasligi ularda o'z kelajagiga nisbatan hadik, xavotir tuyg'usini uyg'otmoqda va afsuski, bu tuyg'u doim ham maqsadga muvofiq usulda bartaraf etilmayapti.

Globallashuv jarayoni ketayotgan hozirgi vaqtda yer yuzining deyarli barcha mamlakatlariga diniy ekstremizm, terrorizm xavfi tahdid solmoqda. Afsus bilan qayd etish kerakki, bevosita terrorchilik aktlarini sodir qilayotgan, turli harakatlarda ishtirok etayotganlarning ko'pchiligi maxsus texnologiyalar vositasida ongi, miyasi zaharlangan kishilar (asosan yoshlar) bo'lib, ular ba'zi g'oyaviy rahnamolar, mafkurachilarning qo'lidagi oddiy qo'g'irchoq ekanliklarini anglab yetmayaptilar. Shuni ta'kidlash lozimki, terrorchilik tashkilotlari, guruhlari a'zolari orasida nafaqat aholining kam ta'minlangan qatlami vakillari, balki o'ziga to'q, moddiy jihatdan barcha shart-sharoitlarga ega oilalar farzandlari ham ko'plab uchraydi. Bu esa asotsial xulq-atvorga iqtisodiy omil bosh sabab bo'lmasligini ko'rsatadi. Zamonaviy terrorizm va diniy ekstremizmning demografik xususiyatlaridan biri shundaki, keyingi yillar ichida terrorchilar ancha "yashardi", "feminizatsiyalashdi" (ayol terrorchilar ko'paydi). Ma'lumotlarga ko'ra, terrorchi, ekstremist, destruktiv guruhlar a'zolarining aksariyati 20-30 yosh o'rtasidagi kishilardir. Ular orasida yoshi ulug' insonlar kamchilikni tashkil etib, rahbarlar, "mafkurachilar" va "ekspert"larni istisno etganda, 50-60 yoshli odamlar deyarli uchramaydi. Bu hol tasodifiy emas. Buning ijtimoiy-psixologik sababi shundaki, yoshlardagi qiziqqonlik, xavf-xatar romantikasi, o'zining kimligini ko'rsatib qo'yishga ishtiyoq, mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatining shakllanmaganligi ba'zan nafaqat davlat, jamiyat, atrofdagilar, balki o'zi, oilasi uchun ham xavfli xatti-harakatlarni sodir etishga ham olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ko'pchilik yot g'oyalarga beriluvchilar o'z faoliyatlarida, albatta, turli xil buzg'unchiliklarni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'radilar<sup>3</sup>. A'zolari tayyorlash jarayonida psixologik ishlov berish va targ'ib qilinayotgan g'oyalarning haq ekanligiga

<sup>3</sup> Волков Е.Н. Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных култах // Журнал практического психолога. — М., 1996. № 3.

ishonchni mustahkamlash maqsadida ularga sodir etilgan “shahidlik” harakatlari, terrorchilik aktlari videoyozuvlari tushirilgan disklar mazkur harakatlarning “to‘g‘riligi” xususidagi Qur‘ondan iqtiboslar bilan birga qo‘yib beriladi. Tayyorgarlik davrida ba‘zan narkotik va psixotrop vositalardan ham foydalanilishi mumkin.

Kuzatishlarimizga qaraganda, turli xil yot g‘oyalarga beriluvchilar alohida belgilarga ega bo‘lmagan, bizning qatorimizda yashab kelayotgan, ammo o‘zining noturg‘unligi asosida yot g‘oyalarni o‘zlashtirib olgan kishilar bo‘lib, ularning harakat mazmunini aynan shu jihat belgilaydi. Ular qaysi jinsga, millatga taalluqli bo‘lmasin, baribir destruktiv xulq egasidir. Noturg‘unlik, qo‘rquv hissi xalaqit berishi tufayli hayotda o‘zlarini namoyon eta olmasliklari ularning umumiy xususiyatlaridir. Shuning uchun terroristik xurujni yoki yot g‘oyalarni yoshlarga singdirayotgan paytda ular o‘zlarini mard, olijanob, haqiqat yo‘lida hech nimadan qaytmaydigan, barcha qiyinchiliklar ular uchun hech qanday ahamiyatga ega emasday tutadilar. Real hayotda esa ular qo‘rqoq, o‘z qilmishlaridan doimo xavotirda bo‘lib yuradilarki, bu ular shaxsida yetishmovchiliklarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Odatda radikal (diniy-ekstremistik va terrorchilik) tashkilotlarga mavjud ijtimoiy tuzilmalarga nisbatan muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirgan shaxslar, noto‘liq oilalarning farzandlari, vaqtincha ishsiz yoki umuman ishga joylasha olmagan yoxud kriminal xatti-harakatlarni amalga oshirishga moyil kishilarning qarindosh-urug‘lari, yaqin tanishlari yoki bolalari a‘zo bo‘ladilar. Shuning uchun yoshlar o‘rtasida yot g‘oyalar ta‘siriga tushib qolishning oldini olishda mahalla va oilada ota-onalar bunday yoshlarni ish yoki biror ijtimoiy foydali mashg‘ulot bilan bandligini ta‘minlash muhim hisoblanadi.

Kuzatishlardan ma‘lum bo‘lishicha, ma‘lum vaziyatlarda insonda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan alamzadalik hissi kishini o‘zi singari asotsial guruh va tashkilotlarga a‘zo bo‘lishga undaydi. Ta‘kidlanganidek, terrorchilar, sekta va kult vakillari uchun umumiy jihat o‘zini anglash muammolari bilan bog‘liq ehtiyojlardir. Shunday ekan, bu toifadagi o‘smirlar va yoshlar bilan ishlashda asosiy e‘tibor shaxs ijtimoiy tuzilmasining maqsadga muvofiq shakllantirilishi va fuqarolik hissi tarkib toptirilishiga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Psixologik bilimlarning ko‘rsatishicha, tashqi muhit va shaxsning ichki dunyosi bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon qaysidir ma‘noda kishi xulq-atvori va xarakterini

belgilovchi asosiy omildir. Shundan kelib chiqib, o‘zini o‘zi anglash jarayonida psixologik yordamga muhtoj yoshlar uchun yonida uni taniydigan, unga maslahat beradigan, uning uchun to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan insonning bo‘lishi muhimdir. O‘zini o‘zi anglashda kishi ta‘lim olish, dunyoqarashini kengaytirish, turli ma‘lumot va materiallarni qabul qilish, yangi hayotiy tajribani o‘zlashtirish qobiliyatini namoyon qiladi, oxir-oqibatda tegishli shaxs sifatleri shakllantirilib boriladi. Inson o‘zgaradi, transformatsiyalashadi va bu jarayonni uning o‘zi ongli ravishda his etishi, nazorat qilib borishi talab etiladi.

Terrorchilik tashkilotlari, yot g‘oyalarga beriluvchilar guruhlar a‘zolari tarkibi ham asosan tajovuzkor kayfiyatdagi paranoidlardan iboratdir. Ular ko‘pincha o‘z muvaffaqiyatsizliklari sababini tashqi omillardan izlaydigan (eksternal nazorat lokusiga ega) shaxslardir. Odatda ko‘pchilik destruktiv guruhlar uchun guruhning barcha ichki muammolariga sababchi sifatida qaraladigan umumiy bir dushman timsoli mavjud bo‘ladi. Timsol sifatida shayton, muayyan bir shaxs, hukumat yoki boshqa diniy-radikal tashkilotlar xizmat qilishi mumkin. Bunda inson ba‘zi kishilarni do‘stlari, ayrimlarini dushmanlari qatoriga kiritadi va bu – ehtiyoj, o‘zligini himoya qilish hissi sifatida namoyon bo‘ladi<sup>4</sup>.

Ma‘lumki, shaxs birdaniga ekstremistik guruh a‘zosi bo‘lib qolmaydi. Guruh a‘zosi bo‘lishdan oldin unda apatiya, loqaydlilik, tevarak-atrofdan bo‘lib o‘tayotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik hissi paydo bo‘lishi mumkin, shu bilan birga kishida ijtimoiy aksilmoslashuv (dezadaptatsiya)ning turli shakllarini boshdan kechirish ehtimoli kuzatiladi. Assotsial, destruktiv guruh bilan muloqotda bo‘lish, a‘zolariga o‘zini tenglashtirish unda salbiy, negativ xarakterda bo‘lsa ham ijtimoiy rollar shakllanishiga olib keladi. Guruh bilan ixtiyoriy ravishda, birdan aloqalarni uzishning deyarli iloji yo‘q. Bu psixologik jihatdan o‘zini o‘ldirish, “Men”ini yo‘qotish bilan barobar. Chunki guruhga jalb qilingan shaxsning o‘zini o‘zi baholash darajasi ilgari shu qadar past bo‘lganki, qayta shakllangan pozitsiyasi, o‘zligini yo‘qotishni aslo istamaydi. Destruktiv guruh a‘zolarining barchasi ham qahri qattiq, avtoritar odamlar bo‘lmaydi. Guruhga qabul qilingach, ularda qo‘rquv hissidan himoyalaniish mexanizmi yuzaga keladi. Guruhga nisbatan qilingan hamla, uning o‘ziga ko‘rsatilgan tajovuz singari idrok etiladi.

<sup>4</sup> Кодиров У. Ёшларни деструктив таъсирлардан химоялашнинг психологик жихатлари. Тошкент, “Фан ва технологиялар”, 2013, 246 б.

A'zolar ongiga guruh mafkurasi kuchli singdirilgani sababli tashqaridan ko'rsatilgan har qanday ta'sir ularning jipsligi, birdamligini mustahkamlaydi<sup>5</sup>. Shuning uchun bunday guruhlarga qarshi axborot kurashi olib boranda mazkur omilni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot va kuzatishlar yoshlarning yot g'oyalarga berilishlarining oldini olishda quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borilishi zaruriyatini ko'rsatdi:

– turli soha mutaxassislari ishtirokida diniy-ekstremistik guruhlarining ta'lim muassasalari, tashkilotlar, fuqarolik jamiyatlari institutlari hamda aholiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan salbiy ta'siri muammosiga bag'ishlangan davra suhbatlari, konferensiyalar, seminarlar uyushtirish;

– muayyan mafkura, ta'limot, oqim yoki tashkilotning ijtimoiy-psixologik jihatdan xavflilik (xavfsizlik) darajasi to'g'risida asosli xulosalar bera

oladigan, malakali mutaxassislardan iborat vakolatli ekspert tuzilmalarini tashkil etish;

– oilada ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida asosiy e'tiborni talabalarda tanqidiy tafakkurning rivojlantirilishiga, shuningdek ular da axborot-psixologik xavfsizlikning ta'minlanganligi, psixologik himoya mexanizmlarining shakllanganligiga qaratish.

**Xulosa.** Bugungi kunda yoshlarni destruktiv, diniy-ekstremistik guruhlar, buzg'unchi g'oyalar ta'siridan himoyalash e'tiborga molik, davlat siyosati darajasidagi masala ekanligidan kelib chiqib, bu yo'nalishdagi ishlarni susaytirmaslik, izchil va tizimli olib borish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular da mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish keng ilmiy jamoatchilik, mahalla faollari, ota-onalar va har bir ongli fuqaro oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

<sup>5</sup> Қодиров У. Ёшларни де­структив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари. Тошкент, “Фан ва технологиялар”, 2013, 246 б.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нуткидан. “Маърифат” газетаси, 2017 йил 1-июн, №52
2. Волков Е.Н. Методы вербовки и контроля сознания в деструктивных култах // Журнал практического психолога. — М., 1996. № 3.
3. Хаитов А., Қодиров Б., Қодирова А. Шахса психологик ҳимоя механизmlарини шакллантириш. Республика илмий анжумани материаллари тўплами. —Т. 2012. —Б 32-34.
4. Қодиров У. Ёшларни де­структив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари. Тошкент, “Фан ва технологиялар”, 2013, 246 б.